

## TARBIYACHINING FAOLIYALARNI TASHKIL ETILISH JARAYONIDAGI IJODKORLIGI

**N.M. Kayumova dotsent**

Nizami nomidagi TDPU

E-mail: [kayumovanargiza71@gmail.com](mailto:kayumovanargiza71@gmail.com)

**Z.M. Murodxo‘jaeva**

“Maktabgacha ta’lim pedagogikasi  
va psixologiyasi”yo‘nalishi talabasi:

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalashda tarbiyachilarning ijodkorligi yoritilgan. Tarbiyachining pedagogik qobiliyati, pedagogik mahoratini takomillashtirish mazmuni ifodalangan.

**Kalit so‘zlar:** Kreativlik, pedagogik qobiliyat, pedagogik mahorat, mimika pantomimika, pedagogik texnika

**Аннотация:** В статье описывается творчество педагогов в воспитании детей дошкольного возраста.

**Ключевые слова:** Творчество, педагогическое мастерство, педагогическое мастерство, пантомима, пантомима, педагогический прием

**Abstract:** The article describes the creativity of teachers in educating preschool children.

**Key words:** Creativity, pedagogical ability, pedagogical skill, mime, pantomime, pedagogical technique.

Pedagog faoliyatining muvaffaqiyati pedagogik qobiliyatlarining mavjudligiga ham bog‘liqdir. Pedagogik qobiliyat - pedagogik mahoratga erishishning zaminidir. Pedagogik qobiliyat tarkibiga: pedagogik kuzatuvchanlik, pedagogik tasavvur, diqqatni taqsimlash, tashkilotchilik qobiliyati va pedagogik muomala kiradi. Pedagogik qobiliyatlar pedagogik faoliyatlar jarayonida, shuningdek uni bu faoliyatga tayyorlash jarayonida shakllanadi. Pedagogik mahorat – bu yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishni yuksak darajada va doimiy ravishda takomillashtirib borish san’atidir. Pedagogik takt o‘qituvchi kasbiy mahoratining asosi bo‘lib, o‘quvchilarga barcha demokratik talablar asosida pedagogik ta’sir o‘tkazish, muloqotni insonparvarlik tuyg‘ulari asosida o‘rnatish o‘lchovi, o‘quvchilarda mustaqil fikr yuritishni hamda ongli intizomni tarkib toptirish ko‘nikmalarini hosil qilish shaklidir. Nutq (yorqin va jarangdor; obrazli va intonatsiyali; chuqur hissiyotga berilish bilan; oddiy va betaraf; bosiq va vazmin gapirish; yoki ifodaliligi kam, ta’sirchanlikning yo‘qligi; betaraf; yo‘riqnomaviy-idoraviy). Mimika (ifodali, tetik va dadil, yorqin ko‘rinishga ega bo‘lish, tashqi ko‘rinishning pedagogik maqsadga muvofiqligi, his tuyg‘ularga boy, bosiq va vazmin ko‘rinishni yuzda aks etishi). Pantomimika (ifodali va ta’sirchan harakat, yoqimli inson, sevimli ustoz sifatida o‘zligini namoyish eta olish, his tuyg‘ularga boy, bosiq va vazmin bo‘lish, betaraf, beo‘xshov harakatlardan saqlanish). Pedagogik texnika – o‘qituvchining nafaqat ta’lim–tarbiya jarayonida, balki butun kasbiy faoliyatida zarur bo‘lgan umumiy pedagogik bilim va malakalari majmuidir. Pedagogik texnikaning muhim jihatlari – bu avvalo o‘qituvchining mahoratini belgilovchi kasbiy ko‘nikmalari hisoblanadi, ya’ni uning savodli va ifodali so‘zlay olishi, o‘z fikr-mulohazasini va bilimini tushunarli tilda ta’sirchan bayon qilishi, his-tuyg‘usini jilovlay olishi, o‘zining shaxsiy xususiyatlariga xos mimik va pantomimik qobiliyatlarga ega bo‘lishi, aniq imo-ishora, ma’noli qarash, rag‘batlantiruvchi yoki istehzoli tabassum, so‘zning cheksiz qudrati orqali o‘quvchilar ongiga va tafakkuriga ta’sir o‘tkazishi, hozirjavoblik, psixologik bilimlarga ega bo‘lishi kabilardir. Pedagog kerakli bilim, malaka va ko‘nikmalarni ma’lum bir izchillik bilan egallab borsagina bolalarni tarbiyalash va ularga ta’lim berish ishida

yaxshi natijalarga erishadi. Eng muhimi tarbiyachi bolalarga ishonch bilan qarashi, ularning mehnatsevarligi, mustaqilligi, tashabbuskorligini to‘g‘ri taqdirlashi va mustaqil faoliyat qilishlari uchun imkoniyat yaratishi kerak. Buni bolalar yuqori baholaydilar. Tarbiyachining pedagogik faoliyatida nutq texnikasini mukammal egallash muhim ahamiyatga ega. Zero, nutq vositasida tarbiyachi bolaning his-tuyg‘ularini uyg‘otadi, bolalar bilan ongli muloqotni ta‘minlaydi, ta‘lim-tarbiyaga oid ma‘lumotlarni tahliliy idrok etadi. Buning uchun bo‘lajak tarbiyachi avvalo nutq sirlarini, uning bolalar bilan bo‘ladigan muloqotda ta‘sir kuchini puxta bilishi kerak. Maktabgacha yoshdagi bolani o‘zining shaxsiyatini qo‘llab-quvvatlash, bolaning manfaatlari va ehtiyojlarini hurmat qilish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosida bolalarni kelajak hayotiga tayyorlashda muhim hisoblanadi. Maktabgacha ta‘limni sifat jihatdan takomillashtirishga qo‘yilayotgan talablar sirasiga: pedagogik jarayonlarda bo‘lajak pedagoglarni shaxslararo muloqotga tayyorlash, sub‘ekt munosabatlariga kirishish; kompetensiyaviy diagnostika; maktabgacha ta‘limni boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etishga oid bilimlar bilan qurollantirish; ularning kasbiy kompetentligini rivojlantirish; maktabgacha ta‘lim sifatini boshqarishga oid zamonaviy yondashuvlarni egallashlariga sharoit yaratish va maktabgacha ta‘lim muassasalarini muntazam takomillashtirish hamda modernizatsiya qilish zamon talablaridan biri hisoblanmoqda.

Kreativlik, o‘z navbatida, izlanuvchining ma‘lum yangilik yaratishi uchun ob‘ektga qaratilgan shaxsiy qobiliyadan kelib chiquvchi bilimlar va hissiy kechinmalarni namoyon qilish jarayoni sifatida ham tavsiflanadi.

Bayon qilingan fikrlardan shu narsa ayon bo‘ladiki, kreativlik faqat yangi g‘oya yoki yaratuvchanlikning mahsuli emas. Kreativlik tom ma‘noda - yaratilgan yoki ilgari surilgan biror yangi g‘oyaning asoslanishi, tajribadan o‘tib, amaliyotda o‘zini oqlashi, muhimi jamiyat, xalq uchun biror naf keltira oladigan natijaga ega bo‘lishi bilan belgilanadigan yangilik hisoblanadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Терехова, О. (2022). РАЗВИТИЕ ТВОРЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ–РЕЗУЛЬТАТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПСИХИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(23), 17-20.
2. Жўраева, Н. (2022). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ СИФАТИ ИНДИКАТОРЛАРИНИ АМАЛИЁТГА ЖОРИЙ ЭТИШ МАЗМУНИ. Eurasian Journal of Academic Research, 2(11), 491-493.
3. Махмудова, Д.М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методлари. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 274-278.
4. Каюмова, Н. М. (2022, November). Функциональные обязанности директора дошкольной образовательной организatsии. In international scientific and practical conference" the time of scientific progress" (Vol. 1, No. 3, pp. 102-107)
5. Nurbaeva, I. T. (2022, November). Models of pedagogical communication in the educational process. In international scientific and practical conference" the time of scientific progress" (vol. 1, no. 3, pp. 88-95).
6. Алиходжаева, Г.С. (2021). Формирование социально-коммуникативной компетентности у детей старшего дошкольного. Экономика и социум, (5-1), 46-50.
7. Chorjeva, D. A. (2022, November). DIAGNOSTIC FEATURES TO IMPROVE LEARNING PROCESS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 3, pp. 145-149).